

## SSENOGRAFIYA SAN'ATI VA UNING O'ZIGA XOSLIKHLARI

*Ismoilova Fotima Izzat qizi  
O'zDSMI 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bilamizki, teatrda sahnalashtirilgan har bir spektakl uchun alohida yangi dekoratsiyalar yaratiladi. Ushbu dekoratsiyalar yashashni ham boshqa terminlar kabi san'at sohasida o'z termini mavjuddir. U ssenografiya san'ati deya atalib, quyida ssenografiya san'ati qanday san'at ekanligi, uning o'ziga xosliklari hamda afzallikkleri haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** rassom, dekoratsiya, badiiy-estetik obraz, badiiy bezash, butaforiya, rekvizit, bezak, uch sistema, xarakatlanuvchi.

San'at asari inson faoliyatining badiiy mahsuli. Uning barcha turlari tabiat o'zaro mushtarak. Ular insoniyat ijtimoiy ongi tarixiy rivoji va olamni badiiy nuqtayi-nazardan anglash ehtiyoji tufayli tug'ilgan. Har bir san'at turining umumiy estetik tabiatini uning turli ko'rinishlarida turlichay, faqat o'z spesifikasiga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ulardan biri Ssenografiya – teatr dekoratsion san'ati badiiy faoliyatning tasviriy san'at va teatrga teng aloqador alohida jabhasidir.

Ssenografiya san'ati teatr sintetik san'atining komponentlaridan biri bo'lib, unda rassom faoliyati spektakl – sahna voqeligiga bo'ysundirilgan bo'lib, o'z tabiatida tasviriy vositalar orqali tomoshabinga ta'sir o'tkazuvchi badiiy obrazlar yaratishdek ma'suliyatni mujassam etgan. Teatr va tasviriy san'atga teng aloqador teatr dekoratsion san'ati tarixiy rivoji jarayonida tug'ilgan spektakllar bezash sistemalari prinsiplari hamda tasvirlash usul va vositalariga tayangan holda, hayotimizda sodir bo'layotgan har bir o'zgarish jarayonini o'z asarlarida badiiy-estetik obrazlar yaratish orqali aks ettirishga chaqirilgan. Bu san'at qo'yayotgan har bir qadam, u yaratgan har bir sahna asari albatta teatr san'ati rivoji tarixida o'z alohida o'rinni va ahamiyatiga ega.

Teatr san'ati va bu san'at uchun muhit yaratish faoliyati qadim davrlarga borib taqaladi. Tadqiqotchilar ularning ildizlarini haqli ravishda xalq bayramlarining marosimiy o'yinlarida ko'rishadi. Marosimiy o'yinlar tomoshalari uzoq, qadim zamonalarda yuzaga kelgan bu o'yinlar mehnat, maishiy hayot quvonch va tashvishlari, qayg'u-hasratlari va bayramlarini shoirona tasvirlash xususiyatiga ega bo'lgan. Ular inson faoliyati va uning hayotidagi muhim voqealar, uning tabiat bilan o'zaro munosabati, iymon-e'tiqodi, turli his-tuyg'ularga boy hayoti hamda ma'naviy dunyosini ifoda etgan.

XVIII va XIX asrlarda teatr rassomlari "dekorator rassomlar" deb yuritilgan. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ularni "teatr rassomlari" deb atay boshlashdi va atamadagi bu o'zgarish dekoratsion san'atning sahna voqeligi bilan bo'lgan aloqasining chuqurlashuvi – sahnaviy harakatni badiiy-ifodali bezashga bo'lgan

ehtiyoj sabab yuzaga keldi. “Badiiy bezash” atamasi XX asrning 20-yillarida san’atga “konstruktivizmning” kirib kelishi munosabati bilan paydo bo’ldi. XX asr ikkinchi yarmida, Yevropada keng tarqalgan “ssenografiya” atamasi teatr dekoratsion san’atining sinonimi sifatida bizga ham kirib kelib, teatrda faoliyat yurituvchi rassomlarga nisbatan “ssenograf” atamasi ham qo’llanila boshlandi.

Teatr spektakli uchun bezak yaratish san’atining yuzaga kelish, shakllanish va rivojlanish davrining umumlashgan holdagi tahliliga nazar solganda, bu davr to’rt bosqichga bo’linadi. Bosqichlarning har biri ssenografiya san’ati muayyan sistemalarining yuzaga kelishi bilan bog’liq bo’lib, ular ssenografiya sistemalari tarzida nomланади. Улар: ssenografiyaoldi davri, Ijroviy ssenografiya (Antik davr va O’rta asrlar), Dekoratsion san’at (XIV-XIX asrlar) va Voqeiy-harakatlanuvchi ssenografiya (XX asr) sistemalaridir. San’atning bu turi barcha bosqichlariga nisbatan ssenografiya atamasining qo’llanilishi sababi, ingliz tilida chop etiluvchi adabiyotlarda spektakl bezashning barcha – dekoratsion, ijroviy va personajli ko’rinishlarining shu atama ostida yuritilishidadir.

Ssenografiya san’ati qator komponentlardan tashkil topgan. Улар: dekoratsiya, kostyum, grim, butaforiya va rekvizit bo’lib, ularning yig’indisi va o’zaro munosabati spektakl obrazi, dramaturgiya hamda uning g’oyasini ochishga qaratilgan. Ssenograf sahnada personajlar va ularning ishlash va harakat qilish muhitlari, qiyofalari – obrazini yaratishga yordam beradi. Shu faoliyat orqali u o’zining, rejissor va spektaklning boshqa ishtirokchilari bilan birgalikdagi voqelik mazmuni, uning komponentlari tushunchalarini ochishni o’z zimmasiga oladi. Bu boradagi ssenografning roli sahna voqeligi muhiti va davrini tasviriy vositalar orqali belgilash bilan kifoyalanish emas, balki uning roli chuqurroq – u voqelik mazmunini tomoshabinga yetkazadi, mazmunida hayotning har bir inson tabiatida iz qoldiruvchi ehtirols larga boy lahzalarini badiiy umumlashtirgan yaxlit spektakl va uning har bir epizodi, har bir ko’rinishi nigohiy obrazini yaratadi.

Ssenografiya san’ati badiiy faoliyatning qator ko’rinishlariga yaqin tabiatga ega. Mazmun-mohiyati bilan u bir tomondan tomosha san’ati bilan aloqador bo’lsa, boshqa tomondan plastik va tasviriy san’at turlari bilan ham aloqador. Sahnalashtirilayotgan asar talabiga qarab ssenograf-rassom sahnada arxitektura inshooti qurishi, bezakka skulptura shakllari, turli-tuman xalq amaliy san’ati namunalarini kiritishi, rangtasvir yoki grafika, plakat tasvirlaridan foydalanishi, fotografiya, kino va telekadrlar kiritishi mumkin. Sahna fazoviy makoni qanchalar turfa ko’rinishda bezalmasin, ssenografning vazifasi asar voqeliklari nigohiy obrazini yaratishdan iborat, faqat shugina ssenografiya san’atining spesifik xususiyati hisoblanadi.

Bu borada rus teatr tadqiqotchilarining teatr makoni hamda ssenografiyasiga bag’ishlangan ilmiy izlanishlari, xususan, V.V.Bazanov, V.I.Berezkin, A.A.Mixaylova, M.A.Frenkel, B.Alpers, A.A.Anikst, B.E.Zaxava, G.N.Boyadjiyev,

M.Zaxarov, Yu.Lyubimov, J.Gassner, P.Bruk, A.Arto, E.Grotovskiy, B.Gavela tadqiqotlari teatr sahnasining transformatsiyasi, asosiy rivojlanish bosqichlarini anglashda, ssenografiya turlari, uslublari, shakllarini aniqlashda nazariy hamda metodologik manba bo'lib xizmat etadi. Shu bilan birga o'zbek an'anaviy teatri, uning asosiy sahnnaviy makoni, ilk sahnnaviy shakllari va vositalari xususida tarixiy-nazariy qarashlarni umumlashтирish yangi tipdagi o'zbek teatri ssenografiyasi xususida fikr yuritishga ko'maklashadi. Garchan, o'zbek an'anaviy teari tarixida stasionar sahnadan foydalanish kam uchragan bo'lsa-da, sahnnaviy makonlari, ijrochilik janrlariga ko'ra turli sahnnaviy shakllarga egaligi, o'ziga xos sahna atributikasi – libos, rekvizit, butaforiya masalalari yuzasidan M.Rahmonov, M.Qodirov, L.Avdeyeva, A.Troiskaya, tojik olimi N.Nurjonovning tadqiqotlarida, shuningdek chor Rossiyasi elchilari V.Krestovskiy, Yavorskiy kundaliklari, hamda A.Eyxgorn, Z.Zareskaya, A.Zakushnyak singari rus san'atkorlarining esdaliklarida an'anaviy teatrga nisbatan berilgan tarixiy umumlashma qarashlar biz uchun qimmatli metodologik manba xizmatini o'tadi.

Jahon va rus teatri ssenografiyasi bo'yicha atoqli olim V.I.Berezkin o'z asarlarida asosan "ssenografiya" atamasini qo'llagan holda sahna bezagi, teatr dekoratsiyasi va ssenografiya san'atining jahon teatr tarixida mavjud uch sistemasini belgilab beradi.

Birinchi sistema – bu o'ynaluvchi (игровая) ssenografiya bo'lib, turli shakllarda barcha dastlabki teatrlar: anti teatr, sharq teatri, o'rta asr Yevropa teatri, Shekspir va Lope de Vega teatrlariga, Italiya del arte komediyasiga xosdir. V.Berezkinning ta'kidlashicha, bu sistema barcha mamlakatlar va xalqlarning folklyor teatriga ham xos bo'lib, qadimgi diniy marosimlar, urf-odatlar bilan bog'liq tomoshalar (predteatr) asosidagi ilk sahnnaviy shakllar va vositalar (predssenografiya) dan kelib chiqqan. O'ynaluvchi ssenografiyaning eng muhim funksiyasi – uning barcha elementlari bilan (ya'ni, maskalar, liboslar, jihozlarning) aktyorlik san'atida bevosita ishtirokidir. Aktyor ijrochiligining ajralmas sinkretik komponenti sifatida o'ynaluvchi ssenografiya turli-tuman ifoda vositalari diapozoni kengligi bilan ajralib turadi. Uning badiiy imkoniyatlari boyligini shu kunlarda ham Xitoy, Hindiston, Yaponianing an'anaviy mumtoz teatrlarida, boshqa xalqlar folklyor tomoshalarida kuzatishimiz mumkin. V.I.Berezkin XX asr oxirigacha ssenografiyaning o'ynaluvchi sistemasiga teatr dekoratsiyasi san'ati nuqtayi nazaridan qo'llanilgan metodologiyani noto'g'ri deb hisoblaydiki, bu ayni haqiqatdir. Shu nuqtayi nazaridan ssenografiyaning ifodaviy vositalari dekoratsiya san'atining dastlabki, rivojlanmagan elementlari sifatida past baholanib, uning o'ziga sahnaning shartli bezalishi, ramziy ravishda alohida unsurlar bilan voqealar o'rnini belgilashi sifatida joy ajratib kelingan. Teatr tomoshalari maydon makonining professional sahna-qtisi bilan almashtirilishi o'ynaluvchi ssenografiyaning dekoratsiya san'atiga aylanishiga olib keldi. Aynan sahna makoni

tipining o'zgartirilishi haqiqatdan ham ikki – o'ynaluvchi va dekoratsion sistemalarning o'ziga xos chegarasini belgilaydi.

Jahon teatr san'ati tarixida spektakl bezashning sistemasi dekoratsiya san'atidir. Muhit tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bu san'atning hukmron funksiyasini endilikda aktyorning o'zi bajarolmaydi. Zero, teatr san'ati professionallashib, sohalar ko'payib, har biri o'zicha mustaqil bo'lib oldi. Uyg'onish davrida Yevropada rassom-dekorator kasbi paydo bo'ldi. Teatrga tasviriy san'at kirib kelib, juda tor ma'noda, ya'ni faqat voqealar o'rni tasvirini belgilovchi tarmoq sifatida ish boshladi. XVII asrdan boshlab teatr tasviriy san'atga ravvoqli qutisimon sahnani taqdim etdi. To'rt asr davomida shu makonda dekoratsiya san'ati ahamiyatli stilistik evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. Teatrda uyg'onish oqimining barokko bilan, keyinchalik klassitsizm, romantizm, naturalizm, simvolizm oqimlari bilan almashuvi voqealar o'rni tushunchasi mohiyatini kengayishiga olib kelishiga qaramay, jahon teaatri sahnaviy amaliyotida voqeal o'rni dekoratsiya san'atining asosiy hukmron funksiyasi bo'lib qolaverdi. Xolbuki, rassom funksiyasi voqeal o'rni tasvirlash emas, balki spektaklning mazmunini belgilovchi real voqelikning o'zi, dramatik konflikt, mavzu, leytmotivlar tashkil etadi. Bu esa rassom san'atininig sahnaviy xatti-harakatning ajralmas komponentiga ekanligini anglatadi.

Shu tarzda ssenografiyaning uchinchi harakatlanuvchi ssenografiya sistemasi vujudga keladi. Rassom san'ati yana aktyorlik san'atining ajralmas komponentiga aylanib, aktyor ijrochiligiga bog'lanadi, faqat endi xalq teatri sinkretizm darajasida emas, balki sahnaviy sintez miqyosida namoyon bo'ladi. Yangi sistema spektaklning harakatlanuvchi komponenti sifatida ko'rindi. Rassom tomonidan yaratiladigan obraz sahnaviy xatti-harakat mazmunini ochib, organik element sifatida spektaklga singdiriladi. Sahnaviy bezakning voqealar tarkibiga faol kirib borishi "xarakatlanuvchi" deb atalishining ma'nosи uning sahnaviy xatti-harakatini, voeqalarning tashqi ko'rinishini emas, balki ko'proq pyesaning ichki g'oyaviy-badiiy mohiyatini ochib berishga xizmat qilishga qaratilgani bilan belgilanadi. Shuning uchun harakatlanuvchi ssenografiya bilan dinamik xususiyatlari dekoratsiya o'rtasida tenglik belgisini qo'yish noto'g'ri. Harakatlanuvchi ssenografiya san'ati individual ijodiy uslublarni ishlatishtga olib keladi. Rassom ifodaviy vositalarning turli shakllarini yaratishi mumkin. Ssenografik kompozitsiyalar funksional yoki dekorativ, o'zgaruvchan yoki statik, lo'nda yoki detallarga ajratilgan, maishiy hayotdan yiroq yoki, aksincha, maishiy haqiqatga yaqin bo'lishi mumkin. Ayni choqda harakatlanuvchi ssenografiya yuqorida qayd etilgan boshqa sistemalarning tamoyillariga ham (maydon tomoshalari uslublariga yoki dekoratsiya san'ati shakllariga) murojaat etishi mumkin. Ya'ni u mohiyatiga ko'ra ko'pfunksionalli (polifunksional) dir. O'zidan oldingi sistemalarning funksiyalarini (ya'ni aktyorlik o'yinida bevosita ishtirot etish, voqeal o'rni yaratish kabi) ham bajarishi mumkin.

1960-yillargacha harkatlanuvchi ssenografiya sitemasi elementlari yig'ilib borgan. Shundan keyin u teatr amaliyotida qo'llanila boshlab, badiiy ijodning bu sohadagi rivojlangan yuqori pillapoyasi sifatida ko'rindi. Harakatlanuvchi ssenografiya dekoratsiya san'atiga ko'ra imkoniyatlari kengligi, uning mohiyati va tasvirining "voqeal o'rni"ga emas, balki universal "sahnaviy xatti-harakat" ga bog'liqligidadir. Uning poetikasi yangi dramaturgiya va turli sahnaviy shakkarda sahna asarlari yaratish, zamonaviy sahnaviy va tasviriy yo'naliishlarni qabul qilib, uslubiy rang-baranglikka erishish imkonini beradi. Shunday qilib, sahnaviy bezakda mavjud o'ynaluvchi ssenografiya sitemasi aktyorlik ijrosini organik ravishda sinkretik ajralmagan elementi sifatida; dekoratsiya san'ati sistemasi spektaklning muhit tasvirini aniqlashda, voqeal o'rmini belgilashda, sahnaviy harakat mazmuni, dramatik konflikt, spektakl mavzusini ochib berishda faol qatnashib, har biri teatr san'ati tarixida o'z o'rni, o'z funksiyalariga ega bo'lib ketdi. Ular teatr bezak san'atining turli bosqichlari bo'lsa-da, hamon yonma-yon, ba'zan birgalikda faoliyat ko'rsatib keladi.

Teatr san'ati turlarida hamon ssenografiya har xil mavqeni egallab keladi. Opera, balet, operetta kabi musiqiy teatrda, masalan, ko'p vaqtlar dekoratsiyada rangtasvir uslubi hukm surib keldi. Dekoratsiyalardagi manzaralar dastgohli rangtasvir tasvirini eslatib turdi. Ssenografiya tushunchasi ikkinchi jahon urushidan keyin musiqiy teatrga ham kirib keldi.

L.Rotbaumning fikricha, ssenografiya uch ma'noga ega: birinchisi – badiiy soha, ikkinchisi – badiiy bezak, uchinchisi – dekoratsiya san'atiga muqobil ijod ko'rinishidir. Dekoratsiyada asosiy e'tibor bezakka qaratilsa, ssenografiyaada funksionallik bosh mezondir. Musiqali teatrda dekoratsiya rangtasvirda, ssenografiya esa sahnaviy makonni tashkil etishda ko'rindi. Dekoratsiya o'z vaqtida voqealar o'tadigan joyning fon bo'lsa, ssenografiya harakat maydonidir. Dekoratsiya tasviriy ravishda bayon etishni, ssenografiya majoziy umumlashma tasvir yaratadi. Dekoratsiyada surat, ssenografiyada obraz muhim bo'lib, spektakl rejissor va rassomning individual qarashlari birlashib yaratilgan sahnaviy kompozitsiya sifatida ko'rindi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayid-Akmal Rasulov "O'zbek ssenografiyasi: shakllanish va taraqqiyot jarayoni"
2. Dilafruz Qodirova "XX asr O'zbek teatri ssenografiyasi"